

**“O‘ZBEKISTONDA HUQUQBUZARLIKLARNING YAKKA  
TARTIBDAGI PROFILAKTİKASINI TAKOMILLASHTIRISHGA  
QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR”**

**Muqumjonova Xumora Dilmurod qizi**

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada mustaqillikka erishganimizdan so‘ng huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va uning profilaktikasini amalga oshirilgan chora-tadbirlar, yakka tartibdagi profilaktikaning ahamiyati hamda O‘zbekistonda huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *huquqbuzarliklar profilaktikasi, profilatika, yakka tartibdagi profilaktika, huquqbuzarlik, jinoyat.*

Mustaqillik bizga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, sud-huquq va boshqa soxalarda tub islohotlar olib borish imkoniyatini berdi. Bu islohotlar mohiyatiga ko‘ra inson manfaatlarini xar tomonlama ximoya qilishga qaratilgandir.

Mustaqillikdan so‘ng Ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilgan islohotlarning maqsadi jamiyatni terrorchilik xurujlaridan, barcha ko‘rinishdagi jinoiy tahdidlardan ishonchli ximoya qilinishini taminlaydigan tizimni shakllantirish, Ichki ishlar organlari inson huquqlari va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini, jamoat tartibi va fuqarolarning xavfsizligini ximoya qilishning ishonchli garoviga aylantirish belgilandi.

Fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash hamda xavfsizligini ta’minlash masalalari eng muhim va ustuvor yo‘nalishlardan bir etib belginlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga 2023-yil 25-oktabrda yo‘llagan tabrigida “Barchamiz yaxshi bilamizki, hamma sohalarda bo‘lgani kabi ichki ishlar tizimida ham yuksak malakali, zamonaviy fikrlaydigan, o‘z kasbiga, Vatanimiz va xalqimizga sodiq kadrlar islohotlar taqdirini belgilab beradi. Shu ma’noda, mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga ko‘tarilayotgan bugungi sharoitda har bir xodimdan yetarli bilimga ega bo‘lish, muloqot va muomala madaniyatini oshirish, har qanday murakkab vaziyatda ham to‘g‘ri qaror qabul qilib, zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarish uchun o‘z ustida tinimsiz ishlash talab etiladi. Barchamiz uchun xalqimiz hayoti eng katta maktab ekanini hech qachon unutmaylik. Shu maktabda bilim olib, toblanib, el-yurt manfaatlarini uchun kurashib yashash – bu eng oliy saodatdir. Shuning uchun joriy yilda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi»da ayni shunday qoida va tamoyillar soha xodimlari faoliyatining bosh mezonini ekanini qat’iy belgilab qo’yildi. Ishonchim komil, o‘z vazifasini halol va vijdonan ado etadigan ichki ishlar organi xodimi el-yurt o‘rtasida albatta munosib obro‘-e’tibor topadi. Ma’lumki, keyingi yillarda ichki

ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratildi. Jumladan, bo'lajak xodimlarni bolaligidan boshlab vatanparvarlik ruhida, yuqori malakali huquqshunos sifatida tayyorlash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Har bir xodim navbatdagi unvonni olishi uchun majburiy tarzda kasbiy malakasini oshirishi, rahbarlik lavozimiga tayinlanishi uchun Ichki ishlar vazirligi akademiyasining boshqaruv magistraturasida tahsil olishi belgilangan va bunday tajriba o'z ijobiy samarasini bermoqda." - deya takidlagan holda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar hamda kelgusida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar haqida to'xtalib o'tdi<sup>37</sup>.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyotini yanada rivojlantirish maqsadida "Taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF 60-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur kontseptual hujjatda islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon qilib olindi. "Taraqqiyot strategiyasi" Harakatlar strategiyasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va natijalarini izchil muhokama qilish, davlat organlari va xalq o'rtasidagi ochiq muloqotni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini samarali tashkil etishda o'ziga xos zamonaviy media-maydon vazifasini o'taydi. Bundan tashqari ichki ishlar organlariga tegishli bir nechta qarorlar ishlab chiqildi.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yahlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallaydi.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va

<sup>37</sup> <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/prezident-iio-xodimlariga-tabrik-yolladi>

mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, yurtimizda jinoyatchilikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik imkonini berdi.

Aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalalari Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida eng muxim va ustuvor o'rin egallaydi hamda bu masala ichki ishlar tizimini tubdan isloh qilish, uning faoliyati samaradorligini zamonaviy bosqichga ko'tarishdek g'oyat murakkab vazifa doimiy ravishda kun tartibiga qo'yib kelinmoqda.

O'tgan qisqa davr mobaynida ayniqsa huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktikasi sohasida keng ko'lamli ish amalga oshirildi. HMQOlar faoliyatida yangi ish uslublari joriy etildi va bu soxada yaxlit huquqiy tizim yaratildi. Profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida joylarda turli bo'g'indagi hokimlar va shahar ichki ishlar bo'limlari rahbarlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimlari joriy etildi.

Bu soxada parlament va jamoatchilik nazorati kuchaytirildi. Senat va mahalliy kengashlarga ma'sul shaxslarning hisobotlarini tanqidiy muxokama qilish, ular faoliyatini baxolash bo'yicha yangi tizim yaratildi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyalari tashkil etildi.

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini taminlash, fuqarolarni xuquq va erkinliklarini xar qanday tajovuzlardan ximoya qilishdek yuksak maqsadlarga erishish uchun istiqolol yillarida ichki ishlar organlari tizimini chuqur isloh qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

O'tkazilgan islohotlar natijasida militsiya uchastka inspektorlari o'rniga profilaktika inspektorlari lavozimi joriy qilindi. Jinoyatlarning oldini olish faoliyatining markaziy subekti xisoblangan profilaktika inspektorlari lavozimi keskin ko'paytirildi, ularning vakolatlari kengaytirildi, xizmat faoliyatlari takomillashtirildi. Jumladan, xar bir mahalla, eng olis va chekka qishloq ovullarimizgacha xalq bilan ishlaydigan uning dard-u g'amiga hammad, quvonch-tashvishiga sherik, hamnafas bo'lishga ma'naviy jihatdan yetuk profilaktika inspetorlari faoliyat olib borish imkoni yaratildi. Respublikamiz aholi turarjoylarida jamoat tartibini va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, aholini huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan kompleks tadbirlarni uzluksiz amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan, xalqimizning hayot tarzi, ma'naviyati, qadriyatlar va mentalitetiga mos keladigan butunlay yangi tizim - ichki ishlar organlarining tayanch punktlari asos solinishi bu boradagi islohotlarning asosiy natijalaridan biri bo'ldi. 2014 yil 14 mayda O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ 371- son qonunining qabul qilinishi bu borada olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Lekin shunga qaramasdan bugungi kunda ushbu tizimning imkoniyatlaridan samarali foydalanish xususida jumladan, ichki

ishlar organlarining profilaktika xizmati hali o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Ushbu muammolarni yechish maqsadida islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibi, fuqarolar xukuklari, yerkinliklari va qonuniy mafaatlari ishonchli ximoya qilishni taminlashda ularning masuliyatini kuchaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli Farmoni va 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2896-sonli qarori shuningdek “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6196-son farmoni qabul qilindi va bu normativ huquqiy hujjatga muvofiq, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasi va oldini olish bo‘yicha faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining zimmasiga huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini amalga oshirishning eng muhim vazifalari belgilandi. Jumladan:

Binchidan - Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarining respublika, o‘rta va quyi pog‘onalari faoliyatining sifat jixatdan yangi tartibini o‘rnatish, bunda ularning asosiy vazifalari, funksiyalari hamda javobgarligini aniq belgilash va chegaralash, profilaktika inspektorlari zimmasiga ular faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalar yuklatilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

Ikkinchidan -profilaktika ishini aholi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etish, ushbu ishni, birinchi navbatda, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishni ta‘minlashga, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, fuqarolarga qonunga xurmat va qonun buzilishining xar qanday ko‘rinishiga murasasizlik munasabatini singdirishga qaratish;

Uchinchidan - voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash tizimini ularni Vatanga muxabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadiriylatlarga xurmat ruxida tarbiyalashga, o‘sib kelayotgan yosh avlodni terrorism, diniy ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan ximoyalashga yo‘naltirilgan xolda rivojlantirish;

To‘rtinchi – profilaktika inspektorlarining zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarning talab darajasida bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shu jumladan o‘zlarining faoliyati xakida jamoatchilik oldida tizimli ravishda xisobot berishlarini yo‘lga qo‘yish, ularning axolini tashvishga solayotgan muommolarga yuzaki munosabatda bo‘lish xolatlariga chek qo‘yish;

Beshinchidan – profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini baxolashning tasirchan mezonlarini joriy etish, bunda, birinchi navbatda jamoatchilik fikri, ularning faoliyati natijalaridan fuqarolarning qanoatlanishi xamda axoli bilan xamkorlik darajasini xisobga olish;

Oltinchi – ushbu soxada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tadbiq etish, profilaktika inspektorlarining bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligini oshirish, ular uchun munosib ish sharoitlarini yaratish, ularning bevosita o‘zlariga biriktirilgan

hududda xizmat turar joyi bilan taminlash, zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish natijadorligi uchun moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish kabi vazifalar belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini amalga oshirish va uning oldini olishda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ichki ishlar organlarida sodir etiladigan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini etiborga olish xam o‘z navbatida muxim ahamiyatga ega.

Ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turgan shaxslar tarbiyaviy tushintirish ishlarini olib borish jarayonida ularga nisbatan axloqan tuzatishni barcha vositalarini samarali yo‘nalishda qo‘llash, profilaktik chora-tadbirlarini oshirilishini taqozo qiladi.

Shuni alohida takidlab o‘tish joizki, huquqbuzarliklar profilaktikasini samaradorligini ta‘minlashda ularni sodir etuvchi shaxslar bilan amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, profilaktik hisobda turuvchi, huquqbuzarliklar sodir etgan yoki huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar bilan huquqbuzarliklar yakka tartibdagi profilaktikasini eng samarali usullarini qo‘llash, bu jarayonda ishonitirish usulining ustuvorligini ta‘minlash, ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish choralari qo‘llash choralari amalga oshirilishi g‘ayriijtimoiy hulq-atvorli shaxslarni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘mak berish bilan bir qatorda ular tomonidan boshqa shaxslarning huquqlarini buzilishini oldini oladi.

Ammo shuni takidlab o‘tish joizki, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu g‘ayriijtimoiy hulq-atvorli shaxslarni tarbiyalash bilan bog‘liq jarayonlar murakkabligi va qiyin kechishi, shuningdek, ularning foydali mehnat bilan shug‘ullanish va halol yo‘l bilan moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan xohish istaklarining kamligi, mehnat bozorida bo‘lgan raqobatda imkoniyatlarining kamligi va boshqalar bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirishni talab etadi va yangi usul-shakllarni ishlab chiqishni taqazo etadi.

Shu boisdan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini takomillashtirish, uning yangi usul va shakllarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish xozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib xisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun
3. “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibi, fukarolar xukuklari, yerkinliklari va qonuniy mafaatlarini ishonchli ximoya qilishni taminlashda ularning masuliyatini kuchaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli Farmoni
4. “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6196-son farmoni
5. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/prezident-iio-xodimlariga-tabrik-yolladi>